



Jizzax viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-mart

2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagি ulushi **74,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **16,4** birlikni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar-martida **914** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **69,8 %** ga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **314** ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida **195** ta, sanoatda **151** ta, qurilishda **97** ta, yashash va ovqatlanishda **53** ta, tashish va saqlashda **21** ta tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo
34,4 %



Sanoat
16,5 %



Qurilish
10,6 %



Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi
21,3 %



Yashash va
ovqatlanish
5,8 %



Tashish va saqlash
2,3 %

**2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'Ichov birligi	2019-yil.	2020-yil.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	12445	14762	2317
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1309	914	-395
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	75,3	74,8	-0,5
Sanoat	%	49,2	53,6	4,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	100	100	0,0
Investitsiya	%	50,9	89,4	38,5
Qurilish	%	98,2	99,1	0,9
Savdo	%	89,2	87,3	-1,9
Xizmatlar	%	66,0	60,3	-5,7
Yuk tashish	%	95,1	93,2	-1,9
Yuk aylanmasi	%	98,3	98,2	-0,1
Yo'lovchi tashish	%	98,0	98,1	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,8	98,7	-0,1
Eksport	%	69,4	57,1	-12,3
Import	%	97,9	96,6	-1,3



2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari ulishi, % da




2020-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Jizzax shahrida - 193 ta, Sharof Rashidov tumanida - 143 ta, Forish tumanida - 73 ta, Baxmal tumanida - 68 ta, Zarbdor tumanida - 67 ta, G'allaorol va Zomin tumanlari - 64 ta, Do'stlik tumanida - 60 ta hamda Paxtakor tumanida - 55 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida - 44 ta, Mirzacho'l tumanida - 35 ta, Yangiobod tumanida - 25 ta va Arnasoy tumanida - 23 tani tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni, birlikda**

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+/-)
Jizzax viloyati	1309	914	-395
Jizzax sh.	416	193	-223
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	44	23	-21
Baxmal	61	68	-7
G'allaorol	88	64	-24
Sharof Rashidov	240	143	-97
Do'stlik	44	60	16
Zomin	119	64	-55
Zarbdor	48	67	19
Zafarobod	24	44	20
Mirzacho'l	59	35	-24
Paxtakor	50	55	5
Forish	85	73	-12
Yangiobod	31	25	-6



**2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha
ulushi, % da**




2020-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax shahri - 21,1 % , Sharof Rashidov tumani - 15,6 %, Forish tumani - 8,0 %, Baxmal tumani - 7,4 %, Zarbdor tumani - 7,3 %, G'allaorol tumani - 7,0 %, Zomin tumini - 7,0 %, Do'stlik tumani - 6,6 %, Paxtakor tumani - 6,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Zafarobod tumani - 4,8 %, Mirzacho'l tumani - 3,8 %, Yangiobod tumani - 2,7 % va Arnasoy tumanida - 2,5 % ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	1309	914	-395
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	180	195	15
Sanoat	263	151	-112
Qurilish	164	97	-67
Savdo	534	314	-220
Tashish va saqlash	28	21	-7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	58	53	-5
Axborot va aloqa	6	9	3
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	13	13
Boshqa faoliyat turlari	68	61	-7

Ma'lumot uchun: 2020-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Jizzax shahri	416	193	-223
Sharof Rashidov tumani	240	143	-97
Forish tumani	85	73	-12
Baxmal tumani	61	68	7
Zarbdor tumani	48	67	19

2020-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida 193 tani tashkil etsada, bu hududda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 223 taga kam bo'lgan.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shilgan xolda)




Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*



2020 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Jizzax shahrida 26,5 birlik, Arnasoy tumanida 20,3 birlik, Mirzacho'l tumanida 19,3 birlik. Zarbdor tumanida 18,0 birlik, Yangiobod tumanida 17,2 birlikni tashkil etgan. Baxmal tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 11,8 birlikga to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shilgan xolda)


**2020-yilning yanvar-martida shahar va tumanlar
bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shilgan xolda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)




- **Eng yuqori ko'rsatkich** Jizzax shahri, - 26,5 birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich** Zafarobod tumani - 15,5 birlik;
- **Eng past ko'rsatkich** Baxmal tumani - 11,8 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Jizzax shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shahar korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Baxmal tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni eng past darajaga tushib ketdi.

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi dinamikasi,
yanvar-mart holatiga ko'ra, % da**

2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,8 % ni tashkil qildi. (2019-yilning yanvar-martida 75,3 %).


YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shilgan xolda)



**Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi
ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)**



Tarmoqlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning ulushi tahlil qilinganida eng ko'p salmog'i qurilish sohasida (99,1 %) bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 punktga oshgan. Investitsiyalar hajmida kichik tadbirkorlik ulushi (89,4 %) o'tgan yilning mos davriga nisbatan keskin (38,5 punktga) oshgan.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi 60,3% ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 punktga kamaygan.

Eksport hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 57,1% ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 punktga kamaygan.

Sanoatda ushbu ko'rsatkich eng past – 53,6 % ga teng bo'lsada, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 punktga oshgan.



2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikni hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Jizzax viloyati	53,7	99,1	60,3	89,4
Jizzax sh.	51,5	98,8	34,1	61,7
tumanlar				
Arnasoy	26,5	100,0	99,1	61,5
Baxmal	100,0	100,0	92,0	93,7
G’allaorol	100,0	100,0	98,8	92,8
Sharof Rashidov	100,0	100,0	98,0	97,7
Do’stlik	20,1	100,0	95,8	95,8
Zomin	99,9	100,0	92,5	96,4
Zarbdor	20,8	100,0	98,4	91,5
Zafarobod	100,0	100,0	96,0	89,0
Mirzacho’l	100,0	82,9	98,8	99,0
Paxtakor	59,3	100,0	96,8	99,6
Forish	93,5	100,0	98,9	99,7
Yangiobod	100,0	100,0	98,4	79,5

Hududlar kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda

Baxmal,
G’allaorol,
Sharof
Rashidov,
Zafarobod,
Mirzacho’l va
Yangiobod
tumanlarida
100%.

Qurilishda

Arnasoy, Baxmal,
G’allaorol, Sharof
Rashidov,
Do’stlik, Zomin,
Zarbdor,
Zafarobod,
Paxtakor, Forish
va Yangiobod
tumanlarida 100%.

Xizmatlarda

Arnasoy (99,1 %),
Forish (98,9 %),
G’allaorol (98,8 %),
Mirzach’ol (98,8 %),
Zarbdor (98,4 %),
Yangiobod (98,4 %),
Paxtakor (96,8 %)
tumanlarida.

Investitsiyada

Forish (99,7 %),
Paxtakor (99,6 %),
Mirzach’ol (99,0 %),
Sharof Rashidov (97,7 %)
Paxtakor (96,8 %),
Zomin (96,4%),
Do’stlik(95,8%)
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020-yilning yanvar-martida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 585,2 mlrd. so'mga teng bo'lib (jami ishlab chiqarishning 53,7 % i), 2019-yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil qildi;
- 2 Jami 1448,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 89,4 % i) o'zlashtirildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga oshgan;
- 3 Jami 477,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 99,1 % i) bajarildi va 2019-yilning 'mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi;
- 4 Jami 679,8 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 60,3 % i), 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi;
- 5 Jami chakana savdo tovar aylanmasi 1446,3 mlrd. so'mni tashkil etib (umumiyligi hajmining 87,3 % i), 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi;
- 6 Jami 14383,9 ming. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 57,1 % i) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2019-yilning mos davriga nisbatan 87,5 % ni tashki etgan;
- 7 Avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,6 % ga (viloyat avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,2 % i) ko'payishi ta'minlandi;
- 8 Yo'lovchi aylanmasining esa 2,2 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 98,7 % i) ko'payishi ta'minlandi.




**Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga
oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining
jami eksportdagi ulushi, % da**



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Arnasoy, Sharof Rashidov, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l, Forish, Yangiobod tumanlarida 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Zarbdor tumani va 24,1 %, Paxtakor tumani 24,4 % ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga
oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining
jami importdagi ulushi, % da**



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Arnasoy, Baxmal, G'allaorol, Sharof Rashidov, Do'stlik, Zomin, Zafarobod, Mirzacho'l, Forish, Yangiobod tumanlarida 100,0 % ni tashkil etdi.

Eng past ko'rsatkich Zarbdor (55,4 %) tumanida kuzatildi.

**2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat
mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**





Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (255,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov tumani (54,3 mlrd. so'm), Zomin tumani (53,5 mlrd. so'm), hissasiga to'g'ri keladi. Arnasoy tumanida esa (12,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamligicha qolmoqda.





2020-yil yanvar-mart holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiobod, Baxmal, G’allaorol, Sharof Rashidov, Zafarobod, Mirzacho'l, 100,0 % ni tashkil etdi.

Do'stlik tumani (20,1%) va Zarbdor tumani (20,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




**2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (302,9 mlrd. so'm), Zomin tumani (298,5 mlrd. so'm), Sharof Rashidov tumani (211,5 mlrd. so'm), G'allaorol tumani (131,1 mlrd. so'm), va Baxmal tumani (107,0 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



**2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahrida (233,7 mlrd. so'm), shuningdek Sharof Rashidov (74,6 mlrd. so'm), G'allaorol (30,5 mlrd. so'm), Zomin (27,2 mlrd. so'm), Paxtakor (26,6 mlrd. so'm), Baxmal (16,8 mlrd. so'm) va Zarbdor (16,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.





**2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (223,7 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (95,0 mlrd. so'm), G'allaorol (63,5 mlrd. so'm), Do'stlik (58,2 mlrd. so'm), Zomin (49,4 mlrd. so'm), Baxmal (34,3 mlrd. so'm) va Paxtakor (32,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda viloyat miqyosida **480** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*,% da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan 480 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning tarmoqlar bo'yicha ulushi tahlil qilinganida: savdoda 33 % (156 ta), xizmatlar sohasida 25 % (121 ta), sanoatda 17 % (81 ta), qurilishda 14 % (68 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11 % (54 ta) ni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar,ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan so'f tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalaring hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan so'f tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalaring hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020-yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 9,7 punktga va sanoat korxonalarida 4,2 punktga oshgan bo'lsa, savdoda 14,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9,6 punktga, xizmatlar sohasida esa 1,4 punktga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydiganlar savdoda 17,0 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9,6 punktga, xizmatlar sohasida esa 0,3 punktga oshgan bo'lsa, qurilishda 4,9 punktga va sanoat korxonalarida 4,5 punktga pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 1,2 punktga, sanoatda 0,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020-yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 12,3 punktga, xizmatlar sohasida 1,5 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10,4 punktga, xizmatlar sohasida 1,5 punktga o'sishi kuzatilgan bo'lsa, sanoatda 11,3 punktga, qurilishda 4,2 punktga va savdo sohasida 1,4 punktga kamayish kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,9 punktga oshgan bo'lsa, qolgan sohalardagi korxonalarda bu kabi baholash kuzatilmadi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020-yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da







2020-yilning I chorak yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 68 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 11 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 16,2 %), qurilish - 8 ta (11,8 %), savdo - 23 ta (33,8 %) va xizmatlar - 13 ta (19,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari - 13 ta (19,1 %).

2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






**2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik
korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi
tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan korxonalar ulushi bo'yicha xizmatlar sohasida 23,1 punktga, sanoatda 3,5 punktga o'sishi kuzatilib, qurilishda 15,4 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,6 punktga, savdo sohasida esa 2,0 punktga pasayishi kuzatildi. Qurilish tarmog'ida iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan korxonalar aniqlanmadи.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7,2 punktga o'sishi kuzatilib, qolgan barcha sohalarda pasayish kuzatildi.

Joriy yilning I choragida o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4,6 punktga kamayishi kuzatilib, qolgan barcha sohalarda o'sish kuzatildi.


2019-2020-yillarning I choragidagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oshgan.

O'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijasiga ko'ra, viloyatda yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar aniqlanmadи.



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: M.Uzmanqulov
Tel.: (0372) 222-79-74 , 221-51-02**